



MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA NOTA SAVODXONLIGINI ÒRNI VA AHAMIYATI

Jovliyeva Marjona Panji qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Musiqa ta'lim
yo'nalishi 1-bosqich magistranti marjonajovliyeva55@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15478368>

Annotatsiya Mazkur ishda musiqa madaniyati darslarida nota savodxonligini shakllantirish va uning o'quvchilarning musiqiy dunyoqarashini rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, notani o'qish va yozish ko'nikmalari orqali musiqani to'g'ri anglash, ijro etish va baholash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Amaliy yondashuv va didaktik usullar orqali nota savodxonligini o'rgatishning samarali yo'llari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: nota savodxonligi, musiqa madaniyati, musiqiy tafakkur, didaktik yondashuv, ijro, musiqiy savod, estetik tarbiya.

Bugungi globallashuv davrida ta'lim jarayonlarida san'at va madaniyatning tutgan o'rni tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, musiqa madaniyati fanida o'quvchilarning musiqiy tafakkurini, eshitish qobiliyatini va estetik didini rivojlantirishda nota savodxonligi muhim omillardan biridir. Nota – bu musiqiy savodning asosidir. U orqali o'quvchi nafaqat asarni ijro etadi, balki musiqiy matnni o'qib, o'z ijodiy dunyoqarashini kengaytiradi. Shu jihatdan, ushbu mavzuning o'rganilishi ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. XXI asrning dastlabki o'n yilligi keskin nazariy izlanishlar davri sifati mamlakatimiz tarixiga kirdi. Bu davrda o'quv jarayonining tamoyillari, mazmuni, tashkiliy shakllari va usullarini ishlab chiqish davri yuz berdi. O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimi sezilarli darajada isloh qilindi. Natijada, umumta'lim maktabining yangi o'quvchilari, tamoyillari, meyoriy-huquqiy ta'minoti to'la-to'kis va uzil-kesil ishlab chiqildi. O'n bir yillik bepul ta'lim maktabi, shu jumladan, boshlang'ich ta'lim (1-4-sinf) bosqichdan iborat etib belgilandi. Umumta'lim zarur va majburiy deb tan olindi. Mazkur jarayonda musiqa ta'limi ham chetda qolgan emas. Aksincha "ommaviy musiqiy ta'lim" davlat siyosatiga aylandi va qo'shiq darsi rasmiy ravishda boshqa majburiy maktab fanlari bilan bir qatorga qo'ladi. Bu vaqtda umumta'limda ta'lim va tarbiya ishlarini tashkil etishda musiqa ta'limidan foydalanish asosiy vosita sifatida qaralishi muhim ahamiyat kasb etdi. Bugungi kunda musiqa pedagogikasi sohasida katta nazariy va uslubiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Birinchi marta musiqa ta'limining ko'plab masalalari o'rtaga qo'yildi va ma'lum darajada hal qilindi. Umumta'lim maktabi uchun musiqa fani dasturlari takomillashtirildi, musiqa o'qituvchilari uchun musiqa fani bo'yicha uslubiy





to'plamlar nashr etildi, umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa ta'limini tashkil etishga yangi yondashuvlar, shuningdek, kadrlarni o'qitish va qayta tayyorlash o'quv kurslari tashkil etildi. Umumta'lim maktabi musiqa ta'limini sahnalashtirishning asosiy masalalari qayta ko'rib chiqildi. Maqsad shaxsning hissiy sohasini rivojlantirish. Tajribali musiqa o'qituvchisi musiqa ta'limi jarayonida musiqa haqidagi bilimlar birinchi o'ringa qo'yish orqali uni idrok etish, paydo bo'lgan his-tuyg'ularni boshdan kechirish, ularni tanish va zarur ehtiyojga aylantirish qobiliyatini rivojlantirish lozim. Ushbu pozitsiyani mustahkamlash borasida musiqa ta'limi jarayonini har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iborat. Musiqa tarbiyasi shunday ta'limiy jarayonki unda badiiy tarbiyani o'zining asosiy maqsadi qilib qo'yishi kerakligini ko'rsatadi. Mamlakatimizdagi uzluksiz ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlar aynan musiqa ta'limining asosiy yo'nalishi, maqsadlari va vazifalarida, musiqa darsida ham aks etdi. O'zining avvalgi shaklini saqlab qolgan holda, u o'quvchilar faoliyatining yangi turlari – musiqa tinglash, ritm, improvizatsiya bilan boyitilib, boshqa tarkibga ega bo'ldi. Umumta'lim maktablarining boshlang'ich ta'lim musiqa darsi o'quv mashg'ulotlarida musiqa savodxonligini ta'minlash o'quv jarayoni samaradorligini kafolatlash bilan bir Ilmiy-nazariyvamethodikjurnal Научно-теоретический и методический журнал Scientific theoretical and methodical journal qatorda musiqa ta'limining yuksalishi davrini ta'minlashga xizmat qiladi. Musiqa fani o'qituvchilari musiqa darsining asosiy muammolarini hal qilishga murojaat qilish davrida uni yuzaga kelish sharti va oqibatlarini o'rganishga harakat qiladilar. Ushbu jarayonda maktabda musiqa ta'limining mazmunini aniqlash asosida vazifa bo'lib, avvalambor ilmiy tadqiqotchilardan musiqa terminalogiyalarini aniqlashtirishni talab qiladi. Bunda "boshlang'ich ta'lim", "boshlang'ich ta'limda musiqa", "boshlang'ich ta'limda musiqa savodi", "maktabda musiqa", "musiqa", "nota savodxonligi", "nota o'qish", "nota yrodamida kuylash" kabi bir qator tushunchalar yuzaga keldiki, ularni to'g'ri tushunish, tahlil qilish va shu yordamida musiqiy-nazariy tushunchalarning tubdan farqlanishga e'tibor berish lozimligini ko'rsatadi. Bu musiqa pedagogikasida keng tarqalgan quyidagi ta'riflarni izohlashga olib keldi. Shunday qilib, musiqa savodxonlik tushunchasi musiqa bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalar va kompetensiya yig'indisi sifatida aniqlandi, shu jumladan, ko'nikma, malakalar va kompetensiya yig'indisi sifatida aniqlandi, adabiyotlar tahlil qilish, musiqiy ekspessivlik vositalarini o'rganish, musiqiy nutqning tuzulishini tushunish qobiliyatini rivojlantirish, musiqiy asarlarning turlarini tushunish qobiliyatini rivojlantirish, musiqiy asarlarning turli shakllari bilan elementar





tanishish, shuningdek musiqa cholg'ulari va ulardan foydalanish masalasi shular jumlasidandir. Musiqa notasi tovushlarning davomiyligini va tegishli pauzalarni o'rganishni, tovush balandligini o'rganishni va uni notada yozishni, notalarda uchraydigan odatiy belgilarni (kalitlar, metrik ko'rsatkichlar, o'zgartirish belgilari va boshqalar) o'rganishni o'z ichiga oladi. Ushbu tushunchalarni didaktika nuqtai nazaridan ajratib, musiqa o'qituvchilari o'quv jarayonida musiqa va musiqiy notalarni bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Musiqa savodxonligining umumiy vazifasi – musiqa nutqni tushunish qobiliyati bo'lib, u bir qator nazariy ma'lumotlarni bilish va musiqiy notani tushunish qobiliyatini hal qilishga yordam beradigan asosiy ta'lim vositasi xisoblanadi. Boshlang'ich sinf musiqa fanini o'zlashtirish doirasida notani ajratish avvalgi o'qitish metodikasini qayta ko'rib chiqishga olib keldi. Musiqa pedagogikasi fani tajribasida amaliy ehtiyojga ega bo'lgan nota savodxonligi dasturidan ma'lumotlarni olib tashlash, o'qitishning yangi usullarini topish va hatto maktab o'quvchilarini zarur o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash vazifasi qo'yildi. Keyinchalik umumta'lim musiqa fani dasturlarida maktab musiqa ta'limida nota yozuvining roli va o'рни nihoyatda muhim ekanligi aniqlandi. Dasturda o'qituvchilarni musiqa darslarida nota yozuvlaridan foydalanish, bu ta'limning yakuniy maqsadi emas, balki faqat “eshitish” qobiliyatlari bilan ishlash va notalar o'qishni pog'onama-pog'ona o'zlashtirish vositasi, bu esa o'z navbatida maktabda musiqiy ta'limning yakuniy vazifalariga yaxshiroq erishish vositasidir. Bugungi globallashuv jarayonida umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilariga nota savodxonlogini o'qitish metodikasini ilg'or qoidalari o'tgan o'n yillikda yanada takomillashtirilgan bo'lib, bir qator kompetensiyaviy yondashuv tufayli musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda aynan musiqiy-nazariy bilimlar muhimligini ko'rsatadi. Mahalliy olimlardan Q.Panjiyev o'zining tadqiqot ishlarida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy faoliyat turlarini tahlil etib, bo'lajak musiqa o'qituvchilari umumta'lim maktablarida kasbiy faoliyatni olib boorish uchun “cholg'u ijrochiligini mukammal egallashlari”, “xonandalik maxoratini yuksaltirishi” va nohojat “musiqiy-nazariy bilimlarni egallashlari” shartligini ta'kidlab o'tgan. Nazarimizda, bu kabi kasbiy faoliyat turlari umumta'lim tizimi musiqa pedagogikasining konsepsiyasini belgilab, musiqa metodologiyasi rivojlanishining bardavomi bo'lib, bu bir qator dasturiy hujjatlarda aks etgan. Musiqa asarini nota yozuvi asosida o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining nota yo'li – “musiqiy ongni murakkab qayta qurish yo'li” deb tushunish va shu bilan birga uning davomiyligi sifatida shaxs ongida subyektiv





sezgilarning musiqiy hodisalar haqidagi tarixiy go'yalar bilan birlashishi, shuningdek musiqiy tafakkurni rivojlantirish va vokal – eshitish apparatlarini tayyorlashi musiqani sezilarli darajada keygaytiradi. Bu butun jarayon, o'z navbatida, musiqiy ongni “nota yozuvining asosiy tamoyillarini tushunishga” olib keladi. Shunday qilib, musiqa asari nota yozuvini bilish – boshlang'ich sinf o'quvchilariga musiqiy savodsiz odamlar uchun mavjud bo'lmagan musiqiy hodisalarni sifat jihatidan yangi bilish imkoniyatini beradi.

Xulosa nota bu – musiqaning tili, har bir belgisi esa yurak ohangining ifodasi. Musiqa madaniyati darslarida nota savodxonligi o'quvchilarga musiqani faqat eshitish emas, balki uni tushunish, his qilish va to'g'ri talqin etish imkoniyatini beradi. Har bir nota, har bir pauza – bu musiqiy tafakkurning poydevoridir. Shunday ekan, musiqiy tarbiyaning chinakam mevasini olish uchun nota savodxonligini chuqur o'rgatish – bu nafaqat o'quvchining, balki jamiyatning musiqiy madaniyatiga qo'yilgan sarmoyadir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2022 – yil 2-fevralda №PQ-112 sonli “Madaniyat va san'at xohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori.
2. D.N.Raxmonova “Boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa savodxonligi” nomli o'quv qo'llanma. Toshkent 2020-yil “Innovatsiya-Ziyo”
3. D.N.Raxmonova “Elektron magnitli musiqiy doska yordamida o'quvchilarning musiqa fanidan bilim darajasini oshirish”. Toshkent 2020-yil “Innovatsiya-Ziyo”
4. G.M Sharipova, G.T.Tojiyeva “Musiqa metodikasi” Toshkent 2021-yil
5. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limining “Milliy o'quv dasturi”. “Musiqa” fanining milliy o'quv dasturi.
6. R.Ishmuhammedov “Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar” Toshkent-2021
7. Aliyev Y.B. Didaktika – praktike (didaktika xudojestvennogo obrazovaniya). M. 1996.
8. Archajnikova L.G. Professiya – uchitel muziki. 1990.
9. Rakhmonova, D. N. (2019). Development of music culture for elementary school pupils with using interactive software. Theoretical & Applied Science, (12), 101-106
10. Rakhmonova, D. N. (2022). Music literacy for primary school pupils. Global Book Publishing Services, [Raxmonova Dilshoda Nusratovna, katta o'qituvchi [Рахмонова Дилшода Нусратовна, старший преподаватель], [Dilshoda N. Rakhmonova, senior lecturer]; manzil: Termiz shahri, “Barkamol avlod” ko'chasi





THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES

International scientific-online conference



43-uy, [адрес: Город Термез, улица Баркамол авлод, дом 43], [address: 43
Barkamol avlod Street, Termez city].

